



Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 12066,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 98,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,4%) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 36,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 22,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 25,0 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal qazib olish - 42,7 % ga oʻsgan, shuningdek neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari - 32,0 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa - 16,6 % ga pasaygan.





Sanoatmahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, tonna.	1028,0	857,0	-171,0
Shag'al, tonna.	25032,0	35711,0	10679,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln. so'm.	173450,6	118017,3	-55433,3



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomondan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11515,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,4 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% ni (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,9 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 59,8 % (57,7 %) va quyi texnologiyalisi - 38,2% (40,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi—49,0 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi—121,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi—19,3 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—16,2 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi –5,5 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,5 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 78,0 ming tonna mazut (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 31,5 % ga o'sgan), 68427,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (13,0 %), 620,1 ming tonna avtomobil benzini (10,5 %), 10331,9 tonna kalava ip (73,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Mazut, ming tonna	59,3	78,0	18,7
Un mahsuloti, tonna	60581,4	68427,2	7845,8
Avtomobil benzini, ming tonna	561,4	620,1	58,7
Aroq, ming. litr	1038,6	1012,0	-26,6
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	16059,2	13791,2	-2268,0


Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta,tolasi, <i>tonna.</i>	44962,2	56239,6	11277,4
Paxta chigiti, <i>tonna.</i>	68529,8	92097,8	23568,0
Quyish uchun tayyor beton, <i>tonna.</i>	9298,2	23098,1	13799,9
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	538,3	459,8	-78,5
Qurilish uchun g'ishtlar , <i>ming dona.</i>	2826,0	1843,0	-983,0



Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan) paxta tolasi 125,1 % ga, paxta chigiti 134,4 % ga, quyish uchun tayyor beton 2,5 marta ko'pga o'sishini kuzatish mumkin. Shuningdek dizel yoqilg'isi 85,4 % ni, qurilish uchun g'ishtlar 65,2 %ni, o'simlik yog'i (tozalangan) 85,9 % ni tashkil etib, ishlab chiqarish sur'atlari kamaygan.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2019- yil,
% da



2020- yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 323,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,0 % ga oshganligi kuzatildi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoatmahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	3,8	4,8	1,0
Issiqlik energiyasi, mingkal	564,5	547,9	-16,6


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi-ning 0,7 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6137,1	6772,2	635,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	251,9	378,7	126,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 50,3 % ga hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,3 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4450,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 63,4 % dan 60,7 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 2,1 % (2019-yil yanvar-sentabr oylarida 2,0 %)ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 21,1 % (iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 938,2 mlrd. so'm), Buxoro shahar 18,5 % (825,4 mlrd. so'm), Kogon tumani 10,3 % (456,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (100,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (105,6 %), Romitan (105,0 %), G'ijduvon (104,5 %), Shofirkon (103,1 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4450,2	100,0	100,1
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	825,4	18,5	100,5
Kogon shahar	230,0	5,2	87,6
Olot tumani	99,9	2,2	97,0
Buxoro tumani	282,7	6,4	100,0
Vobkent tumani	227,8	5,1	100,2
G'ijduvon tumani	446,6	10,0	104,5
Kogon tumani	456,2	10,3	100,7
Qorako'l tumani	251,3	5,6	98,8
Qorovulbozor tumani	938,2	21,1	105,6
Peshko' tumani	91,3	2,1	87,6
Romitan tumani	180,2	4,0	105,0
Jondor tumani	220,9	5,0	86,2
Shofirkon tumani	199,7	4,5	103,1

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 27,1 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 11,1 % ni, Qorako'l tumani 10,1 % ni, Buxoro tumani esa 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumani (111,3 %), Buxoro shahri (111,2 %) hamda Buxoro tumanida (108,1 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1748,8	100,0	104,0
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	473,6	27,1	111,2
Kogon shahar	102,9	5,9	84,0
Olot tumani	47,2	2,7	102,9
Buxoro tumani	158,2	9,0	108,1
Vobkent tumani	96,5	5,5	103,0
G'ijduvon tumani	193,7	11,1	107,0
Kogon tumani	82,6	4,7	103,3
Qorako'l tumani	176,7	10,1	99,5
Qorovulbozor tumani	27,1	1,6	111,3
Peshko' tumani	56,2	3,2	98,9
Romitan tumani	82,4	4,7	105,6
Jondor tumani	141,3	8,1	99,6
Shofirkon tumani	110,4	6,3	102,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 33,7 % ni, shuningdek, Kogon tumani 13,8 % ni, Buxoro shahri 13,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sishsur'atida yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (105,4 %), Romitan (104,5 %), Shofirkon (103,4) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2701,4	100,0	97,7
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	351,8	13,0	89,0
Kogon shahar	127,1	4,7	90,7
Olot tumani	52,7	2,0	92,2
Buxoro tumani	124,5	4,6	91,3
Vobkent tumani	131,3	4,9	98,2
G'ijduvon tumani	252,9	9,4	102,7
Kogon tumani	373,6	13,8	100,2
Qorako'l tumani	74,6	2,8	97,2
Qorovulbozor tumani	911,1	33,7	105,4
Peshko' tumani	35,1	1,3	74,0
Romitan tumani	97,8	3,6	104,5
Jondor tumani	79,6	2,9	69,6
Shofirkon tumani	89,3	3,3	103,4



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidansanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 797,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.



**Buxoro viloyat hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	12066,3	98,2
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	1437,0	100,8
Kogon shahar	502,9	102,4
Olot tumani	286,6	101,7
Buxoro tumani	471,4	105,8
Vobkent tumani	263,3	99,8
G'ijduvon tumani	788,7	115,2
Kogon tumani	571,2	101,3
Qorako'l tumani	372,9	101,9
Qorovulbozor tumani	6057,4	106,5
Peshko' tumani	197,4	97,9
Romitan tumani	345,8	102,5
Jondor tumani	445,5	101,3
Shofirkon tumani	326,2	102,1



Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Peshko' (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 97,9 %), Vobkent (99,8 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qorovulbozor (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan (105,6 %), Romitan (105,0 %), G'ijduvon (104,5 %) va Shofirkon (103,1 %) tumanlaridada sezilarli darajada oshdi.



Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 50,2 % i), Buxoro shahri (11,9 %) G'ijduvon (6,5 %) hamda Kogon (4,7 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Peshko' (1,6 %) hamda Vobkent (2,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (329 995,6 ming so'm), Kogon shahrida (8 204,8 ming so'm) va Kogon tumanida (7 277,7 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 246,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarilishi 2 303,7 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 51 112,1 ming so'mni, Kogon tumanida – 5 812,6 ming so'mni, Kogon shahrida – 3 752,3 ming so'mni, Buxoro shahrida 2 942,8 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Buxoro viloyati	6246,1	2303,7
<i>Shaharlar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	5122,9	2942,8
Kogon shahar	8204,8	3752,3
Olot tumani	2884,8	1005,2
Buxoro tumani	2821,5	1691,9
Vobkent tumani	1878,6	1625,6
G'ijduvon tumani	2588,7	1465,6
Kogon tumani	7277,7	5812,6
Qorako'l tumani	2271,6	1531,1
Qorovulbozor tumani	329995,6	51112,1
Peshko' tumani	1602,6	741,1
Romitan tumani	2434,2	1268,2
Jondor tumani	2547,6	1263,3
Shofirkon tumani	1836,4	1124,5



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 974,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Kogon tumanida (98,5 %) Shofirkon tumanida (86,9 %), G'ijduvon tumanida (69,0 %) kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor (0,9 %), Kogon shahrida (45,7 %) tumanlarida hamda Olot (47,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4143 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1179 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 28,5 % i) Buxoro shahriga, 530 tasi (12,8 %) G'ijduvon tumaniga, 333 tasi (8,0 %) Buxoro tumaniga, 325 tasi (7,8%) Kogon tumaniga, 290 tasi (7,0 %) Jondor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyatda 814 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 148 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,2 %) Buxoro shahrida, 114 tasi (14,0 %) G'ijduvon tumanida, 67 tasi (8,2 %) Kogon tumanida, 65 tasi (8,0 %) Romitan tumanida tashkil etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 19 ta loyiha bo'yicha 974,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,8 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020- yil yanvar-sentabr oylarida 241 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 1,2 martaga oshdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	22	19
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	18	16
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	159,4	974,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	0,8	2,8
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	290	241

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (65) 230-83-06